



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT SHAHRI ADLIYA BOSHQARMASI  
YUNUSOBOD TUMAN YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI**

100039, Yunusobod tumani, Bog‘ishamol ko‘chasi, 8A-uy,  
tel.: (998 97) 325-65-47, el.pochta: yunusobodyurmarkaz@adliya.uz

**Yunusobod tuman  
Xalq ta’lim bo‘limi**

**Yunusobod tuman Xalq ta’limi bo‘limi bilan “TURON MEDIA” XK Nizom  
asosida faoliyat yurituvchi direktori Qodirova.S.F tt2120199-sonli internet  
xizmatlarini ko‘rsatish uchun shartnoma loyihasi yuzasidan o‘tkazilgan  
huquqiy ekspertiza natijasi bo‘yicha**

**X U L O S A**

2022-yil 24-yanvar

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5168-son Qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq mazkur buyruq loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilganda quyidagilar

**A N I Q L A N D I :**

Yunusobod tuman Xalq bo‘limi tomonidan taqdim etilgan shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 703-708-moddalari va O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan taqdim etilgan shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha

**X U L O S A Q I L I N D I :**

Yunusobod tuman Xalq ta’limi bo‘limi bilan “TURON MEDIA” XK Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori Qodirova.S.F tt2120199-sonli internet xizmatlarini ko‘rsatish uchun shartnoma loyihasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

**Yunusobod tuman  
Yuridik xizmat ko‘rsatish markazi  
Bosh yuristkonsulti**



**B.R.Mannonov**